

**CHET EL ADIBLARI ASARLARINI TAHLILGA TORTISH  
ORQALI TALABALARNING INGLIZ TILIDAGI MULOQOTI  
SAMARADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.49.20.057>

**Zaripova Maftuna Bahromovna,**  
*Jizzax davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Til o'rganish bilan bir o'rinda talabalar nutqi va tafakkuri ustida ishlash, o'quvchilarning mustaqil faoliyati va kreativligini oshirishga ham ijobiy ta'sir qiladi. Tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyotini o'rganish bilan cheklanib qolmay, badiiy asarlarni tahlil qilish, qizg'in muhokama qilishlik o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir qiladi.*

*Kalit so'zlar: nutq, tafakkur, modul, nutqiy amaliyot, nutqiy bosqich, psixologizm, semantik tahlili, isbotlar strukturasi, matn, dalil, misol, daliliy reja, daliliy xatboshi*

**ПУТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБЩЕНИЯ  
СТУДЕНТОВ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ ПУТЕМ АНАЛИЗА  
ПРОИЗВЕДЕНИЙ ЗАРУБЕЖНЫХ АВТОРОВ**

**Zaripova Maftuna Bahromovna,**  
*Преподаватель Джиззакского государственного педагогического  
института*

*Аннотация. Наряду с изучением языка, работа над речью и мышлением студентов также оказывает положительное влияние на повышение самостоятельной активности и творческих способностей студентов. Не только изучение литературы стран, в которых изучается язык, но и анализ произведений искусства и оживленное обсуждение положительно влияют на развитие разговорных навыков учащихся.*

*Ключевые слова: речь, мышление, модуль, речевая практика, речевой этап, психологизм, семантический анализ, структура доказательства, текст, свидетельство, пример, план доказательств, доказательный абзац.*

**WAYS TO ENSURE THE EFFECTIVENESS OF STUDENTS'  
COMMUNICATION IN ENGLISH BY ANALYZING THE WORKS  
OF FOREIGN AUTHORS**

**Zaripova Maftuna Bahromovna,**  
*Teacher of Jizzakh State Pedagogical Institute*

*Annotation. Along with language learning, working on students' speech and thinking also has a positive effect on increasing students' independent activity and creativity. Not only the study of the literature of the countries where the language is studied, but also the analysis of works of art, intensive discussion has a positive impact on the development of students' speaking skills.*

*Keywords: speech, thinking, module, speech practice, speech stage,*

*psychologism, semantic analysis, proof structure, text, evidence, example, evidence plan, evidence paragraph*

Metodikada dalillangan yozma fikr ta'limi uchun qator ishlanmalarni tavsiya etish mumkin. Bu ishlanmalar har bir modul doirasida bajariladi: nazariy bilimlarni egallash, namunaviy matnni tahlil qilish, amalda ikki darajali (tayyorlov bosqichi va nutqiy bosqich)tajribani qo'llash va nutqiy amaliyotni bajarish. Bunda nutqiy amaliyotni bajarish deduktiv usulda qanday namoyon bo'lsa, induktiv usulda ham xuddi shunday amalga oshiriladi.

Nutqiy amaliyotni dalillashning bazaviy tushunchalarini quyidagi nazariy aspektlar ifodalaydi: mushohada mavzusining chegarasi, uning semantik tahlili, isbotlar strukturasi (matn, dalil, misol), daliliy reja, daliliy xatboshi, mushohadani o'tkazish usuli, namoyish va boshqalar.

Nutqiy amaliyot bilan birinchi tanishuv, uning xususiyatlari va o'ziga xosligining ajratib ko'rsatilishi, keyin kompozitsiyasiga ko'ra har xil bo'lgan namuna matnlarning tahlili natijasida olingan bilimlarni mashqlar bajarish jarayonida muvaffaqiyatli qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Har bir modulning amaliy qismi ikki bosqichga bo'lingan: tayyorlov bosqichi va nutqiy bosqich. Tayyorlov bosqichining xilma-xil topshiriqlari reproduktiv xarakterga ega bo'lib, nutq ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan: matndan ko'rsatilgan shartlar asosida berilgan unsurlardan tashkil topgan parchalarni qayta tiklash, iboralarni tahrir qilish, tavsiya asosida olingan kichik shaxsiy xabarlarini tahrir qilish va boshq. Yozma topshiriqlar mavzularning dastlabki og'zaki mushohadasi bilan almashinib turadi, bu narsa og'zaki va yozma nutqning o'zaro aloqasi tamoyilini qo'llashning shartlaridan biri sanaladi. Ishning ikkinchi shakli mavzuga moslashish holatini yuzaga keltiradi. Yana ham aniqroq qilib aytganda, tahlil jarayonida mashqlarni to'g'ri bajarish yozuvchining lisoniy imkoniyatlarini, mushohada mazmunini, shuningdek, uning hajmini anglab etishni ta'minlaydi.

Tayyorlov bosqichi deyilganda asarni o'qib chiqish, uning chegaraviy sathini belgilab olish, asardagi voqea-hodislarga nisbatan shaxsiy munosabatlarni belgilab olish, asar haqidagi eng muhim fikrlarni ajratib olishni nazarga tutish mumkin. Nutqiy bosqich tayyorlov bosqichidan o'zining produktivligi farqlanadi. Nutqiy malakalarning shakllanishi aynan ijodiy topshiriqlarni bajarish orqali vuudga keladi. Amalga oshirilgan ish natijasida o'rganilayotgan hodisa bo'yicha dalilning mustaqil qismining yaratilishiga imkon tug'iladi.

Nutqiy bosqich esa eng oxirgi xulosa va mushohadalarni tushuntirib, aytib berish hisoblanadi, Bu jarayon avtonom harakatlarni talab etadi: mazmunning qurilishi, fikrlar ketma-ketligini o'rnatish, ma'lum til birliklarini maksimal darajada qo'llash. Keyingi bosqichlarda nutqiy faoliyatni yo'naltiruvchi vosita sifatida egallangan bilim va alohida ko'nikmalarning shakllanganlik darajasini aniqlashda nafaqat og'zaki nutq, balki yozma nutqning ham egallanganlik darajasini aniqlash kutilgan samarani beradi.

Chet tilini o'rgatadigan oliy ta'lim dargohlarining "Tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti" fani o'quv dasturidagi XX asr Amerika "yo'qotilgan

avlod” adabiyoti bo‘limida quyidagi mavzular o‘rganish uchun tavsiya etiladi:

Amerika modernizmi. E.Xeminguey ijodida birinchi jahon urushi mavzusining aks ettirilishi. E.Xeminguey «O‘zini yo‘qotgan avlod» jarchisi sifatida. “Alvido, qurol” romani. Matn ostida ma’no - “Aysberg” tamoyili. E.Xeminguey ijodining so‘nggi davri. «Chol va dengiz» asari.

F.S.Fitsjeraldning “Buyuk Getsbi” romani.

Sh.Anderson ijodida psixologik novellanavislik va AQSH adabiy an‘analari.

Dos Passos va «AQSH» trilogiyasi. AQSH adabiyotida janub mavzusi.

Uilyam Folkner ijodining uziga xos xususiyatlari. Snopslar oilasi haqida trilogiya. Folkner romanlarida janub, psixologizm, zamon muammolari.

«Shovqin va g‘azab», «Yorug‘lik» va «O‘g‘rilar» romanlari bilan mashhur bo‘lgan amerikalik yozuvchi Uilyam Folkner adabiyot bo‘yicha Nobel mukofoti va Jozef Pulitser mukofotiga sazovor bo‘lgan yagona Missisipilik yozuvchi edi. Dastlab muallifning asarlari unchalik mashhur bo‘lmagan, ammo keyinchalik ular Jahon zamonaviy kutubxonasi kengashi tomonidan 100 ta eng yaxshi ingliz tilidagi kitoblar ro‘yxatiga kiritilgan.

Uilyam o‘n uchta hikoyalar to‘plamini nashr ettirdi. «Emili uchun atirgul», «Qizil barglar», «Oqshom quyoshi» va «Quruq sentyabr» nomli hikoyalarda irqiy adolatsizlik va axloqsizlik, zulm qoralangan.

Hikoya quyidagi jumlar bilan boshlanadi:

Miss Emili Grirson o‘lganda, uni ko‘mish uchun butun shahar yig‘ildi: erkaklar qulagan ma‘budga e‘zoz-ikrom yuzasidan, xotinlar esa kamida o‘n yil inson qadami etmagan xonadonni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgani ichlari oshiqib keldilar, chindan ham bu eshikka ham bog‘bon, ham oshpaz bo‘lgan qari xizmatkordan boshqa hech kim yaqin yo‘lamasdi.

Bunday boshlanma zamonaviy amerika adabiyotidagi an‘anaviy usul bo‘lib, asar boshidagi tugun, jumboq o‘quvchini nafaqat qiziqtirib qo‘ya oladi, shuningdek, o‘quvchini yangi oy-fikrlar, mushohadalar girdobiga ham cho‘mdira oladi.

Miss Emili o‘limining bu qadar g‘aroyibligining sababi, u yashagan xonadon bilan bog‘liq jumboqning sirliligi o‘quvchining diqqatini voqeaga qarata oladi, shu o‘rinda asarning qiziqarliligini ham oshiradi. Qiziqarli bo‘lgan asar esa muhokamaga sabab bo‘la oladi.

Talabalar dastlab hikoyaning inglizcha variantini o‘qib chiqishgach, qayta hikoyalsh tarzida aytib beriladi. Biroq, asar mohiyati to‘la ochib berilishi uchun ham tahlil jarayoni parallel shaklda erkin so‘zlashuv tilida ham olib boriladi. Bu jarayon talabalarning o‘z milliy badiiy nutqiy ko‘nikmalarining shakllanishi uchun, asar mohiyatini to‘la anglashlari va shu uslubda o‘rganilayotgan til adabiyotini butunlay tushunishga asos bo‘ladi.

Hikoyada joylar va o‘rinlar quyidagicha tasvirlanadi:

Sinchkor qilib qurilgan hayhotday uyning suvoqlari ko‘chganiga ne zamonlar bo‘lgan, etmishinchi yillarning havoyi alfozida gumbazchalar, nayzador qubbalar, jimjimador balkonlar bilan bezatilgan bu imorat shahrimizning bir mahallar oksuyaklar mahallasi deb sanalgan ko‘chasida joylashgan edi.

Birinchi gapdagi o‘nta (Sinchkor qilib qurilgan hayhotday uyning suvoqlari ko‘chganiga ne zamonlar bo‘lgan) so‘z aslida, “qadimiy” so‘zini ifodalash

uchungina ishlatilgan. Biroq badiiy uslub talablaridan kelib chiqqan holda soʻzlar oʻz badiiy vazifasini oʻtash uchun ham xizmat qilyapti. Qadimiy imorat edi, deyish ham mumkin boʻlardi, biroq tasviriylilik, badiiylik toʻlaqonli boʻlolmas edi. Xuddi shunday ifodalilikni talabalar oʻz soʻzlari, oʻz nutqlari orqali gapirib berishliklari nutqliy koʻnikmalarining yuqori ekanligini anglatadi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadigan xulos shundan iboratki, talabalar oʻzga tillarda mushohada qilishlari, badiiy nafosatni his qilishlari, badiiylikni anglashlaridan oldin oʻz tillarida barchasini mujassamlay olishlari, his qila olishlari, anglab eta olishliklari ularning nutqiy koʻnikmalarining oshishiga sabab boʻladi.

Asar tahlili davomida adib inson ichki kechinmalarini, hissiyotlarini tasvirlashda quyidagi ifodalardan foydalanadi:

Ular boshdan-oyoq qora kiyingan, tilla zanjir osgan, zanjiri beligacha tushib, soʻng keng belbogʻ ichra goyib boʻlgan, past boʻyli, toʻlachagina xotin qora ogʻochdan ishlangan, dastasi xira oltindan qubbalangan asoga tayanib kirib kelganda, oʻrinlaridan turdilar. U boʻychan, suyagi nozik edi, shuning uchun ham boshqa paytda toʻlalik boʻlib koʻrinadigan holat hozir xomsemizlik kabi tuyular edi. Uning vujudi xuddi uzoq vaqt botqoqlik tagida yotganday shalvaygan va shishganga oʻxshardi. Murdanikiday tussiz betining semiz oʻrmalarida xamir boʻlagiga tikib qoʻyilgan ikki boʻlak koʻmirday koʻzlari bekingan edi. Mushriflar nega kelganliklarini bayon qilisharkan, bu koʻzlar ularni birma-bir suzib chiqdi.

Hikoya davomida odamlardan bezib, tor kulbasiga tobora koʻmilib borgan, “sham qotgan maʼbud” kabi sovuq haykalga aylanib borayotgan Emilining taqdiri ochilib boradi. Hikoyning soʻngida barcha koʻrguliklarning sababi ayon boʻladi.

Yuqorida taʼkidlanganidek, hikoya ikki bosqichda: tayyorlov bosqichi va nutqiy bosqichlarda tahlildan oʻtkaziladi. Asar voqeasi, qahramonlar характери, joy tasvirlari tayyorlov bosqichi uchun xizmat qilsa, asar gʻoaysining ochib berilishi, undagi voqealar mazmunining ochib berilishi nutqiy bosqichga kiradi.

Umuman olganda, harakatlarni ketma-ketlikda bajarish (nazariy materialni oʻzlashtirish, daliliy namunaga tayanish hamda lisoniy mazmunni oʻzida jamlagan tayyorlov va nutqiy mashqlarni bajarish faoliyatlari) egallangan bilimlarni daliliy xarakterdagi matnni tushunib etishda asos vazifasini bajaradi.

Q.Husanboyevaning “Nutq oʻstirish nazariyasi va metodikasi” darsligida quyidagi fikrlar taʼkidlaydi: “Bola tanlab hikoya qilishda ham, batafsil hikoya qilganda ham oʻqilgan matnni ichdan (xayolan) tahlilga tortadi. Badiiy matnning savol va topshiriqlar koʻmagida amalga oshiriladigan didaktik tahlili bolalar tafakkurini, nutqidagi mustaqillikni oʻstiradi va oʻqilgan matn mazmunini oʻzlashtirishga yordam beradi. Oʻqilgan hikoyaga rasm chizishda bola rassomlar tomonidan chizilgan rasmlardan oʻqilgan asarning mazmuniga mos birini tanlab shu asosda ishlaydi yoki oʻzi rasm chizadi. Agar bola rasmni yaxshi chiza olmasa, oʻzi chizmoqchi boʻlgan rasmni ogʻzaki tasvirlab beradi, Yaʼni soʻz bilan “chizadi”. Oʻqilgan hikoyani davom ettirish usuli maktabgacha nutqiy taʼlim amaliyotining shu bosqichida qoʻl keladi. Bu usul hikoyaning mazmuni uni davom ettirishga imkon beradigan asarlarda qoʻllaniladi”.

Oliy ta'limda nutq ta'limi jarayonida talabalar turli janrdagi asarlar tahlili tajribasiga ega bo'lishadi, ularning o'ziga xos xususiyatlarini va matni rasmiylashtirish qoidalarini bilib oladilar, matnning asosiy g'oyasini ochib berishni o'rganadilar, mavzuni izchil bayon qilishga yo'naltirilgan reja tuza oladilar, yozma nutq jarayonida o'z-o'zini nazorat qilishda, shuningdek, ishning birinchi variantini tugallashdan so'ng yo'naltiruvchi kriteriya bo'lib xizmat qiladi. Ayrim o'quvchilar mushohada mavzusini bilganlari zahotiy oq mavzu chegaralarini mustaqil belgilab olishlari ham uchraydi. Biroq, talabalar ishlarining tahlili jarayonida shu narsa aniq bo'ladiki, mavzuni kengaytirish yoki qisqartirish borasida o'quvchilar kamchiliklarga yo'l qo'yadilar, bu holat o'quvchilarning bosh g'oyani ochib berish nuqtai nazaridan o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmasining etarlicha darajada emasligini ko'rsatadi. Bu murakkablikning yuzaga kelishi muhokamaning quyidagi turlariga bog'liq bo'ladi:

1. Qo'yilgan savollarga berilgan to'g'ri javoblar. Hikoya qanday yakun topdi? Savol-javob mushohada g'oyasini tushunish uchun imkoniyat darajasini beradi, chunki har bir odam u yoki bu bahsli hodisa bo'yicha o'z shaxsiy dunyoqarashiga ega bo'ladi. SHuning uchun har bir o'quvchi o'z qiziqishlari va dunyoqarashidan kelib chiqib, mavzuni bayon qiladi, masalan, talaba «Nima yaxshi-yu, nima yomon?» degan savolga javob berar ekan, o'z hayotiy tajribasidan kelib chiqib, matn tuzadi. Ushbu hikoya qahramoni Emili haqida ham har kimning o'z qarashi, munosabati bo'lishi mumkin. Asar qahramoniga munosabat bildirishda bir kishining fikri umumiylik uchun asos bo'la olmasligi mumkin.

2. Munozara xarakteridagi mavzu muhokamasida, masalan, «Hikoyadagi bosh qahramon harakterini oqlay olasizmi?» savoliga javob dalillashning matniga aylanadi, uning asosi esa barcha dalil va ularni badiiy ifodalarni izlash va ularni optimal darajada joylashtirishni izlab topishga undaydi.

Muhokamani rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratadigan harakatlantiruvchi kuch sifatida bir necha qarama-qarshi qarashlarga imkon beradigan, talabalar uchun qiziqarli bo'lgan (jamiyat hayoti, insonlar o'rtasidagi o'zaromunosabat, do'zlik va boshq.) mavzular hisoblanadi;

3. Tushunchalar ma'nosini ochib berishni talab qiladigan, masalan, to'g'rilik, takabburlik, oriyat kabi mavzular asosidagi muhokamalar. Berilgan tushunchalarning ma'nosini aniqlashda qiyinchiliklar yuzaga kelsa, nufuzli manba – izohli lug'atga murojaat qilinadi. Atamaning qiyinligi tanlov vaziyatini yuzaga keltiradi: tanlangan nuqtayi nazarga moslashish yoki uni inkor qilish, masalan, «Men baxtni qanday tushunaman?», «Men uchun nima muhim: kim bo'lishmi yoki qanday bo'lish?», va boshqalar. Mavzu-tushunchalarni yoritishda muammoning qo'yilishi va uni ishonchli dalillar bilan mustahkamlashda katta mustaqillik imkonini beradi.

4. Tushunchani to'g'ridan to'g'ri ochib berishni talab qilmaydigan muhokamalar. «Baxtni har kim o'z qo'li bilan yaratadi» mavzuli muhokamada mavzu asosini ta'minlovchi savollardan foydalaniladi.

Shubhasiz, mavzuni izchil va etarlicha yoritish muhokama uchun ma'lumotlarni adekvat tanlashga bog'liq. Gap shundaki, dalillashdan maqsad

shaxsiy fikrni oddiygina olg'a surish emas, balki muammoni yoritishda uni o'qigan kishi bayon qilinayotgan masala bo'yicha muallif nuqtai nazarini aniq bilishi kerak. Bunga erishish uchun bir qator harakatlar amalga oshirilishi kerak: birinchidan, mavzu chegarasini aniqlash – bu narsa matnni yoritishda umumiy mazmunga javob bermaydigan yo'ldan borishga yoki muammoning ayrim aspektlarini unutishga yo'l qo'ymaydi. Sitatalarni asta-sekin o'qishda ochqich so'zlar – o'zida asosiy ma'lumotni ifodalaydigan va matnni tushunishda asosiy rol o'ynovchi lug'aviy birliklar aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев Ю. Жаҳон олий мактаби: қиёсий таҳлил. –Т.: Адабиёт ва санъат, 2001. –288 б.
2. Yo'ldoshev.Q., Yo'ldosheva.M. Badiiy tahlil asoslari.-Toshkent: Kamalak nashriyoti 2016.-464 b.
3. Выготский Л.С. Педагогическая психология - М.: «Педагогика-Пресс», 1996.-533 с.
4. Турдиев Б. Ёзма нутқни ўстириш юзасидан практикум. Педагогика институтларининг филология факультетлари студентлари учун ўқув қўлланма. –Т.: Ўқитувчи, 1980.
5. Husanboyeva.Q, Hazratqulov.M. Nutq o'stirish nazriyasi va metodikasi. Darslik. Samarqand-2020.216 b.
6. Husanboyeva Q. Literature as a factor for development of morality and independent thinking. –Т.: Tamaddun, 2016. –298 б.
7. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/uilyam-folkner/emili-uchun-atirgul>
8. <https://ru.wikipedia.org/wiki>. Википедия. Свободная энциклопедия.